

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.1.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA BIR MARTALIK KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**XAMROYEV XALIM ROZIKOVICH**

**MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY  
ZONALARNI TASHKIL ETISH METODOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**BUXORO – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора экономических наук**

**Content of dissertation abstract of doctor of economics**

**Xamroyev Xalim Rozikovich**

Mintaqani barqaror rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish .....3

**Хамраев Халим Розикович**

Совершенствование методологии организации свободно - экономических зон в устойчивой развитии региона .....33

**Khamroyev Khalim Rozikovich**

Improving the methodology for organizing free economic zones in the sustainable development of the region .....65

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....69

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.1.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA BIR MARTALIK KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**XAMROYEV XALIM ROZIKOVICH**

**MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY  
ZONALARNI TASHKIL ETISH METODOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**BUXORO – 2025**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DS/Iqt893 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillarida joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Ro'zmetov Baxtiyar  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nizamov Asliddin Badreddinovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mallabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.1.72.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «19» *iyul* kuni soat 16.00 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99 865) 221-26-46, e-mail: [info@buxdu.uz](mailto:info@buxdu.uz).)

*21/6/20* Dissertatsiya ishi bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99 865) 224-67-00, e-mail: [info@buxdu.uz](mailto:info@buxdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «2» *iyul* kuni tarqatildi.  
(2025-yil «2» *iyul* daqiqa № 22 raqamli reestr bayonnomasi).



*[Signature]*  
O.X.Namidov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash a'zosi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

*[Signature]*  
N.S.Ibragimov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

*[Signature]*  
B.N.Navruz-Zoda  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoning 147 davlatida 5400 dan ortiq erkin iqtisodiy zonalar mavjud bo‘lib, keyingi besh yil ichida 1400 ta yangilari tashkil etildi, yaqin kelajakda 500 tasini tashkil etish rejalashtirilgan. Erkin iqtisodiy zonalar jahon savdo aylanmasining kamida 30 % iga, jahon kapital aylanmasining yarmiga hamda 100 mln. ish o‘rniga egalik qilishmoqda<sup>1</sup>. Ushbu ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, erkin iqtisodiy zonalar mavqei jahon xo‘jaligi amaliyotida barqaror rivojlanishning muhim dastagi sifatida mustahkamlanib bormoqda. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning bosh maqsadi – hududlarda iqtisodiyot rivojlanishini barqarorlashtirishdan iborat. Ular hududiy iqtisodiy o‘rnatishning muhim nuqtasi, hududlararo integratsiya jarayonlarida kuchaytiruvchi katalizator sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Jahonda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali mintaqada zonal siyosatni takomillashtirishning institutsional muammolari, zonal siyosat orqali hududiy barqaror rivojlanishni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari, erkin iqtisodiy zonalarining zamonaviy shakllari (sun’iy intellektga asoslangan, elektronika, robototexnika va boshqa innovatsion ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zonalar) tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, texnologik madaniyatni modernizatsiya qilishda bunday zonalarining ahamiyatini oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlarini ro‘yobga chiqarishda erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning samarali yo‘llarini joriy qilish yo‘nalishlaridagi tadqiqotlarga ustuvorlik berilmoqda.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>2</sup> “hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirish, jumladan, hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og‘ir bo‘lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish” maqsadlari ustuvor sifatida belgilangan. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda drayver sohalar qatorida erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish, shu bilan birga, yangi ish o‘rinlari va yangi ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish quvvatlarini ishga tushirish mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 17 fevraldagi O‘RQ-604-son “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida” gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 martdagi PF-41-sonli “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022 yil 13 iyundagi PF-153-son “Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar, sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyati samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021 yil 9 iyundagi PF-6244-son “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018 yil 21

---

<sup>1</sup> The Sustainability Practices of Zones. <https://unctad.org/publication/sustainability-practices-special-economic-zones>.

<sup>2</sup> 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. - [https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144).

dekabrdagi PF-5600-son “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022 yil 6 iyundagi PQ-271-son “Hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish va ularni muhandislik kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021 yil 14 sentyabrdagi PQ-5243-sonli “Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021 yil 30 apreldagi PQ-5101-son “Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 10 apreldagi 196-son “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, mazkur sohaga tegishli turli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup>. Erkin iqtisodiy zonalar yaratish, rivojlantirish muammolari va takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar BMTning Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO), Ta’lim, fan va madaniyat bo‘yicha tashkiloti (UNESCO), Taraqqiyot

---

<sup>3</sup> Dissertatsiya ishida quyidagi xorijiy ilmiy tadqiqotlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlaridan foydalanilgan: Agropolis: The Social, Political and Environmental Dimensions of Urban Agriculture. Editor(s) Luc J.A. Mougeot Publisher(s) Earthscan, IDRC. ISBN 1844072320; Al Sakka F. A. M. Human Capital Development in Special Economic Zones the Case of Dubai. Diss. University of Salford, 2014.; Ambroziak A., Hartwell C. (2018) The impact of investments in special economic zones on regional development: the case of Poland. *Regional Studies*. Taylor & Francis Journals, vol. 52, iss. 10, pp. 1322–1331.; Bai X. J., Yan W. K., Chiu Y. H. (2015) Performance Evaluation of China’s Hi-tech Zones in the Post Financial Crisis Era. *Analysis Based on the Dynamic Network SBM Model*. *China Economic Review*, vol. 34, pp. 122–134.; Bogataj, David. The role of free economic zones in global supply chains - a case of reverse logistics. 2011., *Global Free Zone of the Year 2019 – Winners*. Awards Special // *fDi Magazine*. – 2020. – P. 4–14.; Liu W. and others (2018). The development evaluation of economic zones in China. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, vol. 15, iss. 1.; G.Fan, X.Xie, J.Chen, Z Wan, M.Yu, J.Shi - *Marine policy*, 2022 – Elsevier.; Баландина А.С., Баннова К.С., Брайтченко А.А. Зарубежный опыт создания особых экономических зон. Проблемы учета и финансов. № 4 (24). 2016. с.60-63.; Баронов В.И., Костюнина Г.М. Свободные экономические и офшорные зоны. - Магистр: инфра-м. - М., 2013. - 560 с. - isbn 978-5-16-006667-7.; Иншаков О. В., Крюкова Е. В. (2017) Особые экономические зоны как институт развития nanoиндустрии: провалы, проблемы и перспективы. *Вестник Волгоградского государственного университета*. Серия 3: Экономика. Экология. № 1. С. 6–17.; Ковалева Э. В., Мамышева Д. К. Таможенно-тарифное регулирование в странах ЕАЭС при торговле с КНР // *Международная торговля и торговая политика*. – 2019. – № 3 (19). – С. 137–150.; Майбуров И. А., Иванов Ю. Б. (2017) Особые экономические зоны. Теоретико-методологические аспекты развития. Монография. М.: ЮНИТИ-ДАНА. 351 с.; Павлов П. В., Защитина Е. К. (2020) Свободные экономические зоны как современный институт развития в международном бизнесе. *Вестник Санкт-Петербургского университета*. Экономика. Т. 36. Вып. 4. С. 675–692.; Павлов П. В., Фирсова М. В. (2016) Механизм оценки эффективности функционирования ОЭЗ в РФ и направления его трансформации в современных условиях. *Национальная безопасность*. № 6. С. 711–719.; Кабиров, Р. Ф. Теоретические основы создания и функционирования свободных экономических зон. Автореферат кандидата экономических наук. Уфа. 2007.; Левицкий К. В. Свободные экономические зоны как инструмент стимулирования экономической активности: На примере Калининградской области: Дис. ... канд. экон. наук. Москва, 2005. 184 с.; J. Zoilboyev. Theoretical aspects in the formation of pedagogical science, 2022.; Primov S. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish masalalari. - J: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022 va boshqalar.

dasturi (UNDP), Yevropa Iqtisodiy komissiyasi (UNECE), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Jahon banki guruhi (WBG), Xalqaro Valyuta fondi (IMF), Osiyo taraqqiyot banki (ADB), Xalqaro Mehnat tashkiloti (ILO), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Barqaror rivojlanish xalqaro instituti (IISD); Global kelishuv tashabbusi (UN Global Kompakt) kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Erkin iqtisodiy zonalar uchun muhit yaratish, ularning faoliyatini samaradorligiga tahlil qilishga taalluqli ilmiy tadqiqotlar Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish bo'yicha Xalqaro Assotsiatsiya (MARSEZ), «EIZlarning umumjahon assotsiatsiyasi», Ilmiy parklar xalqaro assotsiatsiyasi, Massachusset texnologiya universiteti (texnopark yaratish masalasi), Limerik Milliy Universiteti (ilmiy park yaratish masalasi), Yaponiyaning tashqi savdo va sanoat vazirligi («Texnopolis» konsepsiyasini yaratgan), M.B.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (O'tish davlatlarida EIZlar yaratish), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Sankt - Peterburg moliya va iqtisodiyot universiteti, turizmda erkin iqtisodiy zonalarini yaratish masalalari World Tourism Egustation and Research Centre, International Centre for Tourism and Hospitality Research, Sayohat va Turizm Tadqiqot Assotsiatsiyasi, Xalqaro turizm tadqiqotlari akademiyasi, Kornuoll kolleji, "Vatel-Paris" instituti, Avstraliyaning Sidney Biznes va turizm akademiyasi, Rossiya Xalqaro turizm akademiyasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekistondagi "Rivojlanish strategiyasi" markazi kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Erkin iqtisodiy zonalar yaratish va rivojlantirish muammolarining turli jihatlari qator xorijiy yetuk olimlar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Jumladan, uzoq xorijlik J.A.Luc, A.Ambroziak, C.Hartwell, X.J.Bai, W.K.Yan, Y.H.Chiu. D.Bogataj, S.Hamrouni, S.K.Kim, C.Jensen, W.Liu, G.Fan, X.Xie, J.Chen, Z Wan, M.Yu, J.Shi., M.Fraze, R.Ren, K.Zang kabi xorijlik olimlar bu muammolar yechimini topishga katta hissa qo'shganlar<sup>4</sup>.

Xo'jalik yuritishning maxsus iqtisodiy - huquqiy tartibiga ega bo'lgan maydonlarni shakllantirish va rivojlantirish muammolari, ularni tashkil topishining nazariy-metodologik jihatlariga bag'ishlab A.S.Balandina, K.S.Bannova, V.I.Baronov, G.M.Kostyunina, O.V.Inshakov, E.V.Kryukova, K.Kalotay,

---

<sup>4</sup> Agropolis: The Social, Political and Environmental Dimensions of Urban Agriculture. Editor(s) Luc J.A. Mougeot Publisher(s) Earthscan, IDRC. ISBN 1844072320. - [https://idrc-crdd.ca/en/book/agropolis-social-political-and-environmental-dimensions-urban-agriculture.](https://idrc-crdd.ca/en/book/agropolis-social-political-and-environmental-dimensions-urban-agriculture), Al Sakka F. A. M. Human Capital Development in Special Economic Zones the Case of Dubai. Diss. University of Salford, 2014., Ambroziak A., Hartwell C. (2018) The impact of investments in special economic zones on regional development: the case of Poland. Regional Studies. Taylor & Francis Journals, vol. 52, iss. 10, pp. 1322–1331., Bai X. J., Yan W. K., Chiu Y. H. (2015) Performance Evaluation of China's Hi-tech Zones in the Post Financial Crisis Era. Analysis Based on the Dynamic Network SBM Model. China Economic Review, vol. 34, pp. 122–134., Bogataj, David. The role of free economic zones in global supply chains - a case of reverse logistics. 2011., Global Free Zone of the Year 2019 – Winners. Awards Special // fDi Magazine. – 2020. – P. 4–14., Hamrouni S. What Makes a Successful Free Zone? // fDi Magazine. 2020. – P. 16–18, Kim, S.K. An Analysis on Measuring the Economic Benefit of Free Trade Zones: Case Studies on Preliminary Feasibility Studies in Korea, 2010., Jensen C. (2018). The employment impact of Poland's special economic zones policy. Regional Studies. Taylor & Francis Journals, vol. 52, iss. 7, pp. 877–889., Liu W. and others (2018). The development evaluation of economic zones in China. International Journal of Environmental Research and Public Health, vol. 15, iss. 1. URL: [http://www.mdpi.com/1660-4601/15/1/56/pdf.](http://www.mdpi.com/1660-4601/15/1/56/pdf), Has China's free trade zone policy expedited port production and development? G.Fan, X.Xie, J.Chen, Z Wan, M.Yu, J.Shi - Marine policy, 2022 – Elsevier.

Y.Y.Kovaleva, O.V.Korneyko, G.M.Kostyunina, Yu.B.Kravchenko, I.A.Mayburov, Yu.B.Ivanov, P.V.Pavlov, E.K.Zashitina, M.V.Firsova, L.V.Progunova, V.I.Masalitin, R.I.Zimenkov, O.V.Tinitskaya kabi Hamdo'stlik davlatlari olimlari tadqiqotlarida o'z aksini topgan<sup>5</sup>.

Respublika olimlaridan R.N.Karimova, J.Zoilboyev, A.U.Nigmanov, S.Primov, O.Jumaqulov, A.Normurodov, M.Muxiddinov, S.N.Eshqobilov, Z.O.Umarova, J.I.Karimqulov, R.R.Kuziev, M.Rafikova, M.Rashidov, F.M.Buxarova, M.N.Kamolov, T.M.Umarov, K.Nosirbekov, R.X.Xojimatov, D.Y.Xujamkulov, Sh.S.Maxsudovlar erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish hamda samarali rivojlantirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan<sup>6</sup>.

<sup>5</sup> Баландина А.С., Баннова К.С., Брайченко А.А.Зарубежный опыт создания особых экономических зон. Проблемы учета и финансов. № 4 (24). 2016г.с.60-63., Баронов В.И., Костюнина Г.М.Свободные экономические и офшорные зоны. - Магистр: инфра-м. - М., 2013. - 560 с. - [isbn 978-5-16-006667-7](#)., Иншаков О. В., Крюкова Е. В. (2017) Особые экономические зоны как институт развития nanoиндустрии: провалы, проблемы и перспективы. Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 3: Экономика. Экология. № 1. С. 6–17., *Калотай К.* Особые экономические зоны и стимулирование инвестиций: международный опыт // Научные труды вольного экономического общества России. – 2019. – № 4 (218). – С. 297–307., *Ковалева Э. В., Мамышева Д. К.* Таможенно-тарифное регулирование в странах ЕАЭС при торговле с КНР // Международная торговля и торговая политика. – 2019. – № 3 (19). – С. 137–150., Корнейко О. В., Ин Л. (2017) Сравнительный анализ свободных экономических зон в США, Китае и России в XXI веке. Russian Journal of Agricultural and Socio-Economic Sciences. Вып. 69. С. 5–16., Костюнина Г. М. (2017) Практика функционирования свободных экономических зон в Таиланде. Российский внешнеэкономический вестник. № 5. С. 38–53., *Кравченко Ю. Б.* Особые экономические зоны в развитии мировой экономики // Российский внешнеэкономический вестник. – 2020. – № 1. – С. 93–103., Майбуров И. А., Иванов Ю. Б. (2017) Особые экономические зоны. Теоретико-методологические аспекты развития. Монография. М.: ЮНИТИ-ДАНА. 351 с., Павлов П. В., Защита Е. К. (2020) Свободные экономические зоны как современный институт развития в международном бизнесе. *Вестник Санкт-Петербургского университета. Экономика.* Т. 36. Вып. 4. С. 675–692. <https://doi.org/10.21638/spbu05.2020.406>., Павлов П. В., Фирсова М. В. (2016) Механизм оценки эффективности функционирования ОЭЗ в РФ и направления его трансформации в современных условиях. Национальная безопасность. № 6.С. 711–719., Прогунова Л. В., Масалытин В. И. Роль особых экономических зон в привлечении прямых иностранных инвестиций в развивающиеся экономики Российской экономической университет имени Г. В. Плеханова, Москва, Россия. Международная торговля и торговая политика.2020.Том 6.№ 3 (23).17-27с., Свободные экономические зоны. (2015) Учебное пособие. Под ред. Р. И. Зименков. М.: ЮНИТИ-ДА-НА. 224 с., Тиницкая О.В., Макарова Г.В. Свободные экономические зоны: учебное пособие / О.В. Тиницкая, Г.В. Макарова. – СПб.: ИЦ «Интермедия», 2017. – 252 с.: ил., Горбунова, Ю. Н. Особые экономические зоны: Мировой опыт и российская практика. тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.14, кандидат экономических наук. 2005, Хабаровск. 165 с. - <https://www.dissercat.com/content/osobyekonomicheskie-zony-mirovoi-opyt-i-rossiiskaya-praktika?ysclid=lt30zng6pb377143988>., Кабиров, Р. Ф.Теоретические основы создания и функционирования свободных экономических зон. Кандидата экономических наук. Уфа. 2007. - <https://economy-lib.com/teoreticheskie-osnovy-sozdaniya-i-funktsionirovaniya-svobodnyh-ekonomicheskikh-zon>., Клим, И.В. Роль особых экономических зон в инновационном развитии мировой и российской экономики тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.14, кандидат экономических наук. 2010. - <https://www.dissercat.com/content/rol-osobykh-ekonomicheskikh-zon-v-innovatsionnom-razvitii-mirovoi-i-rossiiskoi-ekonomiki?ysclid=lt315rcabc374105944>., Левицкий К. В. Свободные экономические зоны как инструмент стимулирования экономической активности: На примере Калининградской области: Дис. ... канд. экон. наук. Москва, 2005. 184 с.

<sup>6</sup> Erkin iqtisodiy zonalar bo'yicha Xitoy xalq respublikasi tajribasi J. Zoilboyev - Theoretical aspects in the formation of pedagogical science, 2022., Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning asosiy yonalishlari. A.U. Nigmanov - География: природа и общество, 2020., Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish masalalari. S. Primov - J: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022., Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish masalalari. O. Jumaqulov - Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023., Erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishda xalqaro marketing strategiyalaridan foydalanish A.Normurodov - TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi, 2023., Erkin iqtisodiy zonalar eksport salohiyatini baholash metodikasini takomillashtirish. M. Muxiddinov - Science and innovation, 2022., Erkin iqtisodiy zonalar eksport salohiyatini baholash metodikasini takomillashtirish. M. Muxiddinov - Science and innovation, 2022., Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda jahon tajribasi. S.N.Eshqobilov - Jurnal: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022. Issues of development of free economic zones. Z.O. Umarova -

N.To'xliev, T.M.Axmedov, A.T.Yusupov, A.M.Sodiqov, A.A.Soliev, A.A.Qayumov, F.T.Egamberdiev, B.N. Navruz-zoda, A.B.Nizomov, B.Ro'zmetov, A.A.Qulmatov, D.Sh.Yavmutov<sup>7</sup> kabi iqtisodchi olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida mintaqalar iqtisodiyotini samarali tashkil etish, barqaror va kompleks rivojlantirish masalalarining nazariy-metodologik asoslarini, hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, hududning resurs salohiyatidan samarali foydalangan holda atrof-muhit muhofazasini iqtisodiy jihatdan to'g'ri tashkil etish masalalarini tadqiq etishgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat

---

Актуальные научные исследования в современном мире. 2021., Каримкулов Ж.И., Умирзоков Ж.А.Эркин иқтисодий ҳудудлар ривожланишининг назарияси ва амалиёти. Монография. – Т.: 2017. 195 б., Кузиев Р.Р. Эркин иқтисодий ҳудудларни вужудга келишининг назарий жиҳатлари ва мамлакат тараққиёти учун зарурлиги. “Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020 йил, 4 - сон. - <https://docs.google.com/viewer?url=https%3a%2f%2fwww.statmirror.uz%2ffiles%2f244%2fzonalar+va+regionlar%2f333%2ferkin+iqtisodiy+zonalarni+vujudga+kelishining+nazariy+jihatlar.>, Maxsus iqtisodiy zonalarining O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni. M.Rafikova, M. Muxammadiyeva - Science and Innovation, 2022., The role of special economic zones in the economy of Uzbekistan. M. Rafikova, M. Muxammadiyeva - Science and Innovation, 2022., Мировой опыт развития свободных экономических зон. М.Рашидов - Экономика и инновационные технологии, 2018., Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning erkin iqtisodiy zonalarini rivojlanishi xususiyatlari. Ф.М.Бухарова - Журнал инновации в экономике, 2023., Special industrial zones operating in the republic of Uzbekistan and their significance today. M.N. Kamolov, U.N. Buriyeva - Journal of geography and natural resources, 2022., Umarov T.M. Erkin iqtisodiy zonalarda tadbirkorlik faoliyatiga innovatsiyalar va investitsiyalarni rag'batlantirishda klaster yondashuvining o'rni. 2024 - <https://universalconference.us/universalconference/index.php/icnshs/article/view/277.>, Xitoy xalq respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanish omillari, erkin iqtisodiy zonalarining o'rni va ulushi. K.Nosirbekov - Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2023., Хожиматов Р. Х. Эркин иқтисодий ҳудудларнинг инвестицион капитал оқимини таъминлашдаги ўрни -“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2017 йил - [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/29\\_hojimatov.pdf.](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/29_hojimatov.pdf.), Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy zonalar. Darslik. –Т.: Iqtisodiyot, 2019. – 408b., Эркин иқтисодий зоналарнинг мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришдаги ўрни. Ш.С.Махсудов - Scientific progress, 2022 - cyberleninka.ru., Бык В. Ф. Свободные экономические зоны Республики Беларусь: состояние и перспективы развития. Белорусский экономический журнал - № 3 – 2002 -с.66., Бык В.Ф. Методологические и организационные особенности формирования свободных экономических зон в Республике Беларусь (на примере свободной экономической зоны "Гомель-Ратон") : Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. Гос. науч. учреждение "Науч.-исслед. экон. ин-т М-ва экономики Респ. Беларусь". Минск, 2004., Еременко М. М. Реструктуризация свободных экономических зон в республике Беларусь : Автореф. дис. на соиск. учен. степ. к.э.н. "Белорус. гос. эконом. ун-т". Минск, 2004. <sup>7</sup> To'xliyev N.. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. – Т.: O'zME. 2020, - 204 b.; Axmedov T.M. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. - Т.: Фан, 1995. - 231 с.; Юсупов А. Т. Развитие и размещение производства товаров народного потребления региона: на материалах промышленности Узбекистана: диссертация доктора экономических наук: / академия наук Республики Узбекистан. - Ташкент, 1991. - 298 с.; Садиков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. – Т.: Иқтисод-молия, 2005. – 279 с.; Ahmedov E.A. va b. - intaqaviy iqtisodiyot. T., 2003. – 304 b.; Qayumov A.A., F.T.Egamberdiyev va b. - Mintaqaviy iqtisodiyot. T., 2004. – 116 b.; Rўzmetov B. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис. д.э.н. –Т.: 1997. – 41 с.; Navruz-Zoda B. N, Iqtisodiyotning “yashil rivojlanish” modeli: yaratish bosqichlari va organik tuzilishi “O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. 2025-yil 14-15-aprel: - Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona Nashriyoti, 2025. - 13-20b. Navruz-Zoda B.N. Туризмнинг барқарор инновацион ривожланиш модели. “Сервис” илмий-амалий журнал. 2019 йил. 3-махсус сон.68-72 betlar. Низамов А. Б. Экономический механизм восстановления эквивалентности обмена между сельскохозяйственными и промышленными отраслями (на примере Бухарской области Узбекистана). Автореферат на соис. уч. степ. к.э.н. – М.: 1993. – 17 с.; Qulmatov A.A.. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish omillari. Iqtisod va moliya. 2020, 2 (134). – В. 152-158.; Yavmutov D.Sh. Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida mintaqani barqaror rivojlantirish masalalari. Monografiya. / - Buxoro. Sadridin Salim Buxoriy. 2024. -212 b.

universitetining “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishni takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** – mintaqani barqaror rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

– mintaqani barqaror rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarining ahamiyatini tadqiq etish;

– erkin iqtisodiy zonalarining mohiyatini, rivojlanish konsepsiyasi va turkumlanishini tadqiq etish;

– erkin iqtisodiy zonalar faoliyati tartib va mexanizmlarini, imtiyozlar tizimini o‘rganish;

– zonal siyosat modellarini tahlil qilish, xorijiy davlatlarning samarali modellarining o‘ziga xos jihatlarni o‘rganish;

– erkin iqtisodiy zonalar samaradorligi ko‘rsatkichlarini tadqiq qilish;

– investitsion muhit va jozibadorlikning zonal siyosatga ta‘sirini tahlil qilish;

– zonal siyosatni amalga oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish;

– O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini joriy qilish zaruratini asoslash, zonal siyosatni qo‘llash imkoniyati tahlil qilish;

– mintaqalarda zonal siyosat konsepsiyasining o‘ziga xos jihatlarni ochib berish, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning hududiy xususiyatlarini o‘rganish;

– mintaqani barqaror rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarining samarali shakllarini asoslab berish;

– Buxoroda turizmga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalar yaratish konsepsiyasini ishlab chiqish;

– Buxoro Arkini turistik zona sifatida rivojlantirish imkoniyatlarini va To‘dako‘l suv omborida turistik zona yaratish istiqbollarni asoslash.

**Tadqiqotning obyekti** bo‘lib mintaqada tashkil etiladigan erkin iqtisodiy zonalar uchun faoliyat yuritish muhiti hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** mintaqani barqaror rivojlantirish jarayonida erkin iqtisodiy zonalarini samarali faoliyat yuritish metodologiyasini takomillashtirishda vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning majmuasi tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy o‘rganish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, SWOT tahlil, statistik va boshqa usullar qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

“erkin iqtisodiy zona” tushunchasining iqtisodiy mazmuni tadbirkor va mutaxassis kadrlarga zamonaviy biznesni o‘rganishda muhim vositaligi, hududida innovasion muhit yaratilganligi, erkin tadbirkorlik ruhiyati shakllantirilganligi, xorijiy investorlar uchun biznes shaffovligi ta‘minlanganligi xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirilgan;

hududlarda xorijiy turistlar oqimini oshirishda erkin iqtisodiy zonaning kichik bir shakli bo'lgan "Duty Free" bojsiz savdo do'konlar yirik hamda turistik shaharlarda ochish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishda samarali yondoshuv sifatida hududiy ichki bozorga yo'naltirilgan hamda servis xizmatlariga ixtisoslashgan "Buxoro" turistik erkin iqtisodiy zonasi tashkil etish taklifi asoslangan;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi ustun hududlarda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishda eng maqbul shakl sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va boshqa turdagi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga ixtisoslashgan hududiy ilmiy, iqtisodiy, tabiiy-iqlimiy, kadrlar salohiyatiga asoslanuvchi "yashil hudud" – "Buxoro agropolisi"ni tashkil etish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

turistik shaharlarda turistlar oqimini oshirishda tarixiy-etnografik komponentlar hamda turizm servisining milliy shakllariga asoslanuvchi "Buxoro Arki turizm mahallasi" erkin turizm hududini tashkil etish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

erkin iqtisodiy zonalar rivojini moliyalashtirishda boshqa mablag'larni bosqichma-bosqich, sekin-asta kengaytirish orqali davlatning hissasini kamaytirib borish, imtiyozlarni berishda esa EIZ strategiyasiga moslik darajasiga qarab ishlab chiqish va tabaqalashtirish tizimi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston sharoitida jahon bo'yicha erkin iqtisodiy zonalarining eng keng tarqalgan va kelajakda ishonchli shakllaridan biri bo'lgan texnoparkni yaratish konsepsiyasi ishlab chiqilgan;

jahon savdo bozorida o'z o'rniga ega bo'lgan erkin iqtisodiy zonalarining kichik shakli bo'lgan va savdo-sotiq ishlarini rivojiga katta hissa qo'shayotgan "Duty Free" tizimdagi bojsiz savdo do'konlarini mamlakatimizning yirik shaharlarida, birinchi navbatda turistik shaharlarda ochish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ulushi yuqorilini, umuman bu yurtda agrar soha uchun katta potensial borligini inobatga olgan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va boshqa turdagi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonaning eng progressiv shakllaridan biri bo'lgan texnopolislarning agropolish shaklini tashkil etish zarurligi asoslangan.

Buxoroda tarixiy obidalarni asrash bilan bog'liq muammolarni ijobiy tarzda va tez hal qilish, mintaqa turizmini jadal ravishda rivojlanishga yo'l ochib berishga imkon beradigan turizmga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zona yaratish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning Butunjahon turizm tashkiloti va YUNESKO, erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish bo'yicha Xalqaro Assotsiatsiya (MARSEZ), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv

va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimiz erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish, samarali faoliyat olib borish, oqilona tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, erkin iqtisodiy zonalar uchun muhitni takomillashtirish bo'yicha davlat dasturlarining qamrov darajasini oshirish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni erkin iqtisodiy zonalar faoliyati uchun mintaqada jozibali muhit yaratishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, jumladan, har bir mintaqaga uchun eng maqquul shakl va tushlarni yaratishga mo'ljallangan davlatning maqsadli dasturlari, erkin iqtisodiy zonalar konsepsiyalarini ishlab chiqishda, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Mintaqaviy iqtisodiyot" "Turizm iqtisodiyoti", "Korxonalar iqtisodiyoti", "Milliy iqtisodiyot" fanlarining ishchi-o'quv dasturlarini takomillashtirish va talabalarga ta'lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mintaqani barqaror rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

"erkin iqtisodiy zona" tushunchasining iqtisodiy mazmuni tadbirkor va mutaxassis kadrlarga zamonaviy biznesni o'rganishda muhim vositaligi, hududida innovatsion muhit yaratilganligi, erkin tadbirkorlik ruhiyati shakllantirilganligi, xorijiy investorlar uchun biznes shaffovligi ta'minlanganligi xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirish taklifidan "Turistik erkin iqtisodiy hududlar" darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 31 maydagi 237 son buyrug'i bilan tasdiqlangan 237-t-043 guvohnoma). Tadqiqot ishi natijalari "Turistik erkin iqtisodiy hududlar" fanini mazmunini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan;

hududlarda xorijiy turistlar oqimini oshirishda erkin iqtisodiy zonaning kichik bir shakli bo'lgan "Duty Free" bojsiz savdo do'konlar yirik hamda turistik shaharlarda ochish maqsadga muvofiqligi asoslangan taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 12 yanvardagi PF-9 son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining 2-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 4 martdagi 04-07-27-2354-son ma'lumotnomasi). Bunday do'konlar turistik shaharlarda turistlar oqimini hamda savdosini 25-30 foizga oshiradi;

erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda samarali yondoshuv sifatida hududiy ichki bozorga yo'naltirilgan hamda servis xizmatlariga ixtisoslashgan "Buxoro"

turistik erkin iqtisodiy zonasi tashkil etish taklifidan O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 17 fevraldagi O‘RQ-604-son “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonunining 2 – bobning 4 va 5 moddalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 4 martdagi 04-07-27-2354-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga qo‘llanilishi hududlarda turistlar oqimining 20 foizga, ularga ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmining 25 foizga oshirish imkoniyatini yaratadi;

qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi ustun hududlarda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishda eng maqbul shakl sifatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va boshqa turdagi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga ixtisoslashgan hududiy ilmiy, iqtisodiy, tabiiy-iqlimiy, kadrlar salohiyatiga asoslanuvchi “yashil hudud” – “Buxoro agropolisi”ni tashkil etish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 23 noyabrdagi PF-199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni taminlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining 12-bandini, 4-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 4 martdagi 04-07-27-2354-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi hududlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini 15-25 foizga oshirishi, hududiy ixtisoslashuvni kuchaytirishi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining diversifikatsiyalashuvini kengaytirish imkoniyati yaratildi.

turistik shaharlarda turistlar oqimini oshirishda tarixiy-etnografik komponentlar hamda turizm servisining milliy shakllariga asoslanuvchi “Buxoro Arki turizm mahallasi” erkin turizm hududini tashkil etish maqsadga muvofiqligi asoslangan taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi PF-5781-son “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining 2-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025 yil 4 martdagi 04-07-27-2354-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy qilinishi Buxoro shahriga turistlar oqimini oshishiga sabab bo‘ladi hamda shahar tarixiy obidalarining saqlab qolinishi imkoniyatlarini oshiradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 9 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan. Tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosa va tavsiyalardan oliy o‘quv yurtlarida “Mintaqaviy iqtisodiyot”, “Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish”, “Turizmologiya”, “Turistik erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish”<sup>8</sup>, “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Milliy iqtisodiyot” kabi fanlarning ishchi o‘quv dasturlarini takomillashtirishda va ta’lim berish jarayonida foydalanilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 34 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va

---

<sup>8</sup> Hamroev H.R. Turistik erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish. Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik, “Durdona” nasriyoti. Buxoro – 2021 y. - 500 bet.

innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 15 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 9 tasi xorijiy jurnallarda, 5 ta ilmiy monografiya nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 252 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzulishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi **«Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sharoitida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining nazariy asoslari»** deb nomlangan bo'lib, unda erkin iqtisodiy zonalar (bundan keyin EIZ) ning nazariy jihatlari ko'rib chiqilgan. Hozirgi paytda, butun dunyo industrial iqtisodiyotdan innovatsion iqtisodiyotga qarab bormoqda. EIZ – XX asrning ikkinchi yarim yilligining eng ko'zga tashlanadigan institutsional innovatsiyasidir. Uning ahamiyatini quyidagi ikki raqamning o'zi ko'rsatadi: yigirmanchi asr oxiriga kelib, jahon savdo aylanmasining 30% EIZ orqali o'tgan va jahon kapital aylanmasining qariyb yarmi EIZlar orqali amalga oshirilgan.

Biz olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, EIZlarning qirقدan ortiq turi bo'lib, dunyoning 140 dan ortiq mamlakatida barpo etilgan. Yigirmanchi asrning etmishinchi yillarida jahonda 700 ta EIZ bor degan ma'lumot beriladi, asr oxiriga kelib esa jahonda 4 mingta EIZ bor degan ma'lumotlar beriladi<sup>9</sup>. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, jahonda ularning soni kichik zonalarini hisobga olganda 7000 dan oshib ketgan. Hozir ular dunyo iqtisodiyotida salmoqli o'rinni egallab bormoqda. «EIZ, - amerikalik olimlar M.Fraze va R.Renlar fikricha, - iqtisodiy rivojlanish jabhasida insoniyatning eng qadimiy va shu bilan birga eng zamonaviy g'oyalaridan biridir»<sup>10</sup>. Jahon bozoriga nisbatan ochiqlik EIZlarni barcha qit'alar bo'yicha milliardlab dollar investitsiya qilayotgan, juda katta potensialga ega bo'lgan transmilliy kompaniyalar uchun ham jozibali bo'lib bormoqda. EIZlarda foyda normasi yiliga 30-35% ni, Osiyoning EIZlarida joylashgan transmilliy

---

<sup>9</sup> Цуй Шань. Становление и развитие СЭЗ КНР. М. 1999г. - <https://economy-lib.com/stanovlenie-i-razvitie-sez-knr>.

<sup>10</sup> Федорова Е. В. Свободные экономические зоны: привлечение прямых реальных инвестиций: Дис. ... канд. экон. наук: СПб, 2002. 119 с.

korporatsiyalarida esa 40% tashkil etadi. Kapital mablag'larini o'zini qoplashi esa 2-3 yilni tashkil etadi<sup>11</sup>.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida EIZlarning ahamiyati, ularning jahon mamlakatlari bo'yicha tarqalganidan ham ko'rinadi. 1-jadvaldan shu ko'rinadiki, dunyo davlatlarining 67,4 foizida, ya'ni 218 davlatdan 147 tasida EIZlar bor. Biz EIZlarni jahon bo'yicha tarqalishini tahlil qilib chiqish uchun dunyo davlatlarini taxminiy ravishda (EIZlarga e'tibor nuqtai nazardan) olti mintaqaga bo'lib chiqdik. Bu mintaqalarning qaysisida EIZ bor - yo'qligini aniqlab chiqdik. EIZlari bor davlatlarning hissi eng yuqori Lotin Amerikasida va rivojlangan davlatlarda ekan (mos ravishda – 91,1 va 87,5 foiz). O'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlariga ham keyingi yillarda bu institut jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Afrikada esa eng kam, ya'ni 29,6 foizni tashkil etadi. O'zbekistonga kelsak, birinchi bunday zona 2008 yilda tashkil etilgan bo'lsa, hozirgi paytda ularning soni 24 taga yetdi, kichik hududlar soni ham yildan – yilga oshib bormoda.

### 1 - jadval.

#### EIZlarning jahon mamlakatlari bo'yicha tarqalishi (2019 yil holatida)<sup>12</sup>

Jahon mintaqalari	Mintaqadagi davlatlar soni	EIZlari bor davlatlar*	Foiz hisobida	EIZlari yo'q davlatlar**	Foiz hisobida
Rivojlangan davlatlar	32	28	87,5	4	12,5
Lotin Amerikasi	45	41	91,1	4	8,9
Afrika	54	16	29,6	41	70,4
Osiyo	37	26	70,3	11	29,7
Okeaniya	18	12	66,6	7	33,4
O'tish iqtisodiyoti davlatlari	32	25	78,1	8	21,9
Jami	218	147	67,4	75	32,6

Izoh: \* - hozirgi paytda EIZi bor yoki keyingi o'n yilliklarda bu quroldan foydalangan davlatlar.

\*\* - EIZlari yo'q yoki aniq ma'lumot bo'lmagan davlatlar.

Xullas, EIZlar jahonda ancha keng tarqalgan. Ayniqsa, Yevropa va Shimoliy Amerikaning rivojlangan davlatlarida hamda Janubiy – Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida EIZlar ommaviy tarzda tarqalgan. Qolgan mintaqalarda ham EIZlar tarqalishi juda yuqori, faqatgina Afrika qit'asida, mustamlakachilikdan endigina qutulgan, erkinlikka e'tibor hali yetarli darajaga ko'tarilmagan qit'adagina EIZlarga hozircha e'tiborning kamroqligini ko'ramiz.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki Buxoro mintaqasida O'zbekistonda mavjud EIZlarning 4 tasi faoliyat yuritadi, ammo ularning faqat ikkitasi nisbatan faoliyat yurutsa, 2 tasi hali deyarli faoliyatini boshlagan emas. Hatto eng yaxshi ishlayotgan G'ijduvon zonasi ham, mahalliy xalqning tadbirkorlik qobiliyatini hisobga olsak, uncha yaxshi emas. O'zbekistonda mavjud 829 ta kichik zonalardan esa faqat 59 tasi (7 foizi) Buxoro viloyatida joylashgan.

<sup>11</sup> Болкаров А. К. Свободная экономическая зона как институциональный инструмент адаптации России в процессов экономической глобализации. Дисс.к.э.н. Мировая экономика. Ростов на Дону. 2004. 214с.

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi.

## 2 - jadval.

### Buxoroda faoliyat yurutayotgan EIZlar tahlili (01.01.2025 yil holatigda.)<sup>13</sup>

Nomlanishi	Qachon ochilgan	Umumiy yer maydoni	Qilingan ishlar	Amalga oshirilayotgan loyihalar:	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	Amalga oshirilgan eksport:	Infratuzilma uchun byudjetdan ajratilgan mablag
“G‘ijduvon” erkin iqtisodiy zonasi	O‘R Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi PF-4931-son farmoni	883 ga	68,75 gektar maydonda 167,0 mln dollarlik investitsiya kiritish hisobiga 36 ta loyiha ishga tushirilib, 3 296 ta ish o‘rinlari yaratilgan.	87,8 gektar maydonda qiymati 467,4 mln dollarlik 19 ta loyiha (ish o‘rni 3 540 ta) amalga oshirilmoqda.	890,3 mlrd so‘m (2024 yil).	17,4 mln dollar (2024 yil).	115,9 mlrd so‘m
“Buxoro-agro” erkin iqtisodiy zonasi	O‘R Prezidentining 2018 yil 10 iyuldagi PQ-3843-son qarori.	3008 ga	220,3 mln dollarlik investitsiya kiritish hisobiga 149 ta loyiha ishga tushirilib, 3 824 ta ish o‘rinlari yaratilgan.	189,69 gektar maydonda qiymati 99,9 mln dollarlik 65 ta loyiha (ish o‘rni 1 817 ta) amalga oshirilmoqda.	358,8 mlrd so‘m (2024 yil)	2,7 mln dollar (2024 yil).	74.96 mlrd so‘m
“Qoraqo‘l” erkin iqtisodiy zona	O‘R Prezidentining 2021 yil 13 avgustdagi PQ-5221-son qarori	566,6 ga	0 gektar maydonda 0 mln dollarlik investitsiya kiritish hisobiga 0 ta loyiha ishga tushirilib, 0 ta ish o‘rinlari yaratilgan.	392,5 gektar maydonda qiymati 4 555 mln dollarlik 6 ta loyiha (ish o‘rni 2 591 ta) amalga oshirilmoqda.	0 mlrd so‘m (2024 yil).	0 mln dollar (2024 yil).	180,8 mlrd so‘m
“Buxoro sanoatni rivojlantirish kompleksi” maxsus sanoat parki	O‘R Prezidentining 2024 yil 16 fevraldagi PQ-74-son qarori.	1000 ga, shu jumladan birinchi bosqichda 100 ga	374 mlrd so‘mlik (61,3%) ishlar bajarilgan	293 mln. doll. bo‘lgan dastlabki 19 ta istiqbolli loyixalar ro‘yxati shakllantirilgan	0 mlrd so‘m (2024 yil).	0 mln dollar (2024 yil).	Faqat ikkita korxon qurilmoqda.

Anklav xarakterda bo‘lgan, mamlakatning kichik bir qismini egallagan EIZ ning iqtisodiyotini global ravishda liberallashtirishda butun mamlakatga nisbatan ustunlikka ega. Chunki kichik maydonni tartibga solish, salbiy oqibatlarni bartaraf qilish ancha oson bo‘ladi.

<sup>13</sup> <http://www.buxstat.uz/> hamda <https://stat.uz/uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Uzoq tarixiy rivojlanish davrida (qariyb 29 asr davomida) EIZlar turli shakl, tus va ko‘rinishlarga ega bo‘lgan. Biz ilmiy adabiyotlardagi uchraydigan turkumlashlarni o‘rganib, EIZlarni quyidagicha turkumlab chiqdik (3 - jadval).

**3 - jadval.**


**Erkin iqtisodiy zonalarni turkumlash<sup>14</sup>**

<b>Turkumlash mezonlari</b>	<b>EIZ turlari</b>
Xo‘jalik faoliyatining tashkiliy shakllari bo‘yicha	Territorial; Funksional (yoki tartibli).
Zonaning kengayish nuqtai nazaridan	Kengaymaydigan; Kengayadigan.
Jahon va milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasiga qarab	Ekstravertiv; Intravertiv.
Tarmoq belgisiga qarab	Aniq turkumlash qiyin (tajribada ajratishga harakat qilinadi)
Mulkchilik xarakteriga qarab	Davlat mulki; Xususiy mulk; Aralash;
Yaratishning iqtisodiy motivatsiyasiga qarab	Tadbirkorlik zonasi; erkin iqtisodiy zona;
Yaratish maqsadiga qarab	Integratsiyani kengaytirish uchun; Mamlakat ichida maxsus tartib (tarmoq, soha) yaratishga.
Evolyusiya jarayoni nuqtai nazaridan	1-avlod; 2-avlod; 3-avlod; 4-avlod.
Sotish bozorlari nuqtai nazaridan	Importni o‘rnini bosuvchi; eksport; Aralash.
Qo‘yilgan maqsad va bajariladigan vazifaga qarab	Savdo; Sanoat - ishlab chiqarish; Texnik – tadqiqot; Servis; Kompleks; Xalqaro.
Xo‘jalik faoliyati shakli va mohiyatiga qarab	Monofunksiyali zona; Polefunksiyali zona.
Qaysi sohaga xizmat qilish nuqtai nazaridan	Savdo; Sanoat; Xizmat yoki funksional.
Maydonning kattaligiga qarab	Mikrozona; Meozona; Makrozona.
Necha mamlakatda joylashishiga qarab	Monomillatli zona; Xalqaro zona.
Jahon bozoriga ochiqligiga qarab	Anklav zona; Integratsion zona.
Tadbirkorlik xususiyatiga qarab	Ochiq sektorni shakllantiruvchi zona; Depressiv rayonni rivojlantirish zonasi; Iqtisodiy markaz tusidagi zona; Tashqi savdo zonasi; Funksional zona; Kompleks zona.
Chegaralarni belgilash va faoliyat yuritish tartibiga qarab	Yopiq; Ochiq.
Iqtisodiy ixtisoslashuv bo‘yicha	Erkin savdo zonasi; Tadbirkorlik zonasi; eksport - sanoat zonasi; Ilmiy park; Kompleks zona.
Tashkil etish xarakteri bo‘yicha	Ma‘muriy - territorial birlik; Tarmoq korxonasi.
Geografik joylashuv bo‘yicha	Ichki zona; Tashqi zona.
Zonalashtiriluvchi obyekt xarakteri bo‘yicha	Lokal; Kompleks.

EIZlarni yaratish juda murakkab jarayon, uni tartib bilan olib borish zarur, shuning uchun bu jarayonni modelini ishlab chiqdik. Bu model qay ishni oldin, qay ishni keyin qilish kerakligi to‘g‘risida tasuvvurni beradi, jumladan, EIZ yaratish boshqichlari, maqsadlari, vazifalar, umumiy talablar, yondoshuvlar, shart-sharoitlar,

<sup>14</sup> Muallif ishlanmasi.

loyihalashtirish, texnik – iqtisodiy asoslash, faoliyat yuritish talablari, tashkil etish tamoyillari, zonani boshqarish, davlat tomonidan tartibga solishlarni o‘z ichiga oladi. 1 - rasmda bu jarayonni algoritmi berilgan:



**1-rasm. EIZ uchun muhit yaratish va faoliyat yuritish algoritmi<sup>15</sup>.**

Zonada muvofaqiyatli biznes qilish ko‘plab narsalarga bog‘liq, jumladan, markaziy hamda mahalliy hokimiyatlarning samarali faoliyatiga, EIZning puxta boshqaruviga, mintaqa uchun rioya qilinishi kerak bo‘lgan tamoyillarga va boshqalarga bog‘liqligi isbotlab berilgan (4 - jadval).

**4-jadval.**

**EIZ yaratish tamoyillari<sup>16</sup>**

Tamoyillar	Qisqacha tavsifi
I. Tashkiliy	
1.Funksional maqsadli	Asosiy maqsad va funksiyalarni aniqlash
2.Tashkil etish loyihasining ko‘p variantlilik tamoyili	Yaratish faoliyat yuritish va rivojlanish variantini tanlash.
3.Bosqichma – bosqichlik tamoyilli	Kengayish, faoliyat yuritish, rivojlanish bosqichlarini aniqlash.
4.Territorial yaxlitlik tamoyili	Ma’muriy – territorial bo‘lak (shahar, rayon.) chegaralarida tashkil etish.
II. Iqtisodiy	

<sup>15</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi.

1. Resurslilik tamoyili	Zona tashkil etish va rivojlanishi uchun zarur bo‘ladigan moliyaviy, moddiy, mehat, tabiat va boshqa resurslar bilan ta‘minlash imkoniyatlarini asoslash.
2. Foydalilik va samaradorlik tamoyili	Barcha xarajatlarni qutilayotgan sotsial - iqtisodiy natijalar bilan solishtirish, zona rivojlanishining eng yaxshi variantini aniqlash.
3. Perspektivlik tamoyili	Uzoq muddat davomida faoliyat yuritish.
4. Umumiylik maqsadlari tamoyili	Umummilliy maqsadlar va respublika manfaatlariga mos kelishi.
5. Boshqaruv va tadbirkorlik tavakkali tamoyili	Biznes, tadbirkorlik, raqiblikning xilma – xil jihatlari yuzaga kelganda, ularda noaniqlik holati va tavakkalning kuchli ekanligini va uni yanada kuchaytirishni ta‘kidlash.
6. Raqibiy ustunlik tamoyili	Yangi mahsulotni qidirish, ishlab chiqish va o‘zlashtirish mexanizmini harakatga keltiruvchi «ko‘rinmas prujinadir».
7. Ma‘lumot yetarlilik tamoyili	Bu tamoyil iste‘mol talabini aniqlab beradi, eng namunali tovarlar, raqiblarni bilib olishga yordam beradi, biznes bo‘yicha hamkor topib beradi, xom ashyo keltirish va mahsulotni chiqarishning eng samarali kanallarini topishga ko‘maklashadi.
8. Mijozga mo‘ljalni olish tamoyili	har qanday biznes oxir – oqibat mijozni ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Faqat mijozni xohish - istaklarini yaxshi qoniqtirib, uni ko‘nglini olish va mijoz sifatida ushlab qolish mumkin.
9. EIZni boshqarish strukturasi bozor munosabatlari va tadbirkorlik faolligining rivojlanish darajasiga mosligi tamoyili.	Butun iqtisodiy subyektlarini dinamikligi va moslashuvchanligi hamda bozordagi o‘zgarishlarga mos ravishda siljilishlardan iboratdir. Bunday moslik EIZning resurs imkoniyatlarini bilish va inobatga olish, afzal maqsad va harakat yo‘nalishi nuqtai nazaridan rivojlanishning tanlangan variantirini tasdiqlash va aniqlab olish yo‘li bilan erishiladi.
10. Reflektiv xulq – atvor tamoyili	Boshqalarga hali ma‘qul bo‘lmagan yo‘llarni to‘g‘riligini baholash va o‘rnatishga imkon beradigan har bir holatda rivojlanishi elementlarini nazorat qila oladigan, o‘z xulq – atvorini baholay oladigan yuqori texnologiyali tizimdir.
III. Demokratik	
1. Kelishuv tamoyili	Mahalliy hukumat organlari, aholi, korxonalar manfaatini hisobga olish.
2. Teng huquqli hamkorlik tamoyili	Bozor munosabatlari teng imkoniyatlar jamiyati bo‘lishini taqozo qiladi, ya‘ni makro darajada ham, mikro darajada ham bozorning barcha qatnashchilarini tengligi va o‘zaro foydali hamkorligini bildiradi. EIZ bozor farzandi, shuning uchun unda barcha bozor munosabatlarini, shu jumladan, teng huquqli hamkorlik tamoyilini ham o‘zida aks etadi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi “**Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sharoitida zonal siyosatning metodologik asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, unda yangi kiritilayotgan kategoriya – zonal siyosat nazariy, metodologik aspektida o‘rganilgan. EIZ faoliyatining muvaffaqiyati, nafaqat iqtisodiyotdagi umumiy ahvolga hamda davlatning umumiy iqtisodiy siyosatiga bog‘liq, balki, zonal siyosatga ham bog‘liq.

“Zonal siyosat” termini ilmiy adabiyotlarda juda ham kam uchraydi. Hatto Rossiyada eng to‘liq deb hisoblanadigan (7000 dan ortiq iqtisodiy termin va

tushunchalarni o‘z ichiga oluvchi) iqtisodiy ensiklopediyada<sup>17</sup> ham “zonal siyosat” termini yo‘q. O‘zbekistonda ham bu siyosatni ifodalovchi termin deyarli ishlatilmaydi. Bu esa ushbu kategoriyaning yangiligi va kam o‘rganilganidan dalolat beradi.

Zonal siyosat – bu mamlakatda EIZlarni yaratish bo‘yicha hamda mintaq, tarmoq, soha va alohida korxonalarining potensialini chuqur o‘rganib, ushbu potensialni realizatsiya qilish tizimini ishlab chiqish bo‘yicha davlatning olib boradigan chora - tadbirlar majmuasi bo‘lib, unga mamlakatda shakllangan mehnat taqsimotini samarali rivojlanishini rejalashtirishning bir quroli, deb qarash kerak. Mamlakatda mavjud resurslarni samarasiz ishlatilayotgan soha, tarmoq va mintaqalardan juda samarali ishlatib bo‘ladigan soha, tarmoq, mintaqaga oqishiga ko‘maklashuvchi vosita, deb qarash zarur.

EIZning muhim vazifalaridan biri xorijiy sarmoyalarni jalb etishi hisoblanadi. Shuning uchun investorlar uchun mamlakatni, shu jumladan, zonani jozibadorligi (jalb etuvchanligi) ni ta‘minlash masalasi ko‘ndalang bo‘ladi. Bunda «investitsion muhit» degan atama keng qo‘llaniladi. Atama o‘z ichiga ko‘rsatgichlarning keng doirasini oladi. Bu ko‘rsatgichlar investorga, u ishlashi va qarorlar qabul qilishi kerak bo‘ladigan sharoitlar (iqtisodiy, siyosiy, ideologik, madaniy va b.) to‘g‘risida tizimli tasavvurga ega bo‘lishga imkon beradi. 5 - jadvalda jozibador investitsiya muhitini yaratish chora-tadbirlari berilgan:

#### 5 - jadval.


#### EIZda jozibador investitsiya muhitini yaratish uchun qilinadigan asosiy chora – tadbirlar<sup>18</sup>

<b>Xorijiy investorlarning huquqlari va kafolatlari:</b>	<b>Xorijiy investorlarga beriladigan imtiyozlar:</b>
milliy tovar ishlab chiqaruvchilar bilan teng huquqli xo‘jalik yuritish tartibi;	xorijiy kapitali bo‘lgan korxonalarni ro‘yxatga olishda soddalashtirilgan tartib;
xorijiy mulk va kapital qo‘yilmalarni milliyalashtirish, ekspropriasiya va boshqa zo‘ravonliklardan himoya qilish;	yerdan foydalanish uchun to‘lanadigan haqning past darajada belgilanishi;
foyda (daromad) ni, shu jumladan, milliy valyutani konvertasiya qilish kafolati;	uzoq muddatli ijara va subijara huquqlarining berilishi;
zonada olib boriladigan o‘zining muolajalarini moliyalashtirishda tanlash erkinligining mavjudligi, shu jumladan, jahon kapital bozorlaridan mablag‘larni jalab qilish imkoniyati;	imtiyozli soliq tartibi;
Xususiyashtirish jarayoniga qatnashishda milliy yuridik va jismoniy shaxslar bilan teng huquqlilik;	imtiyozli bojxona tartibi;
EIZ likvidasiya qilinganda mulkni to‘liqligicha olib keta olishda davlat kafolati.	erkin yerni sotib olish (bu investorlar EIZni tashkil etuvchi davlatning niyatlari xolis ekanligiga ishonuvchan muhim dalildir).

<sup>17</sup> Большая экономическая энциклопедия. - М.: Эксмо, 2007. - 816с. - <https://search.rsl.ru/ru/record/01003034244?ysclid=lt3147mtz1677072744>

<sup>18</sup> Muallif ishlanmasi.

Xorijiy investorlar mamlakatga investitsiya kiritishlari uchun alohida muhit, o‘ta qulay sharoit bo‘lishi kerak, aks holda, jahon bozorida investitsiya qilish uchun qulay makonlarning ko‘p bo‘lganligi, investitsiya bozorida taklifga nisbatan talabning katta bo‘lganligi uchun investitsiyani jalb qilish oson emas. Xorijiy investor uchun jozibadorlikni tahlil qilayotganda tavakkal imkoniyatini baholash ham zarur (2-rasm).



**2 - rasm. Investitsiya kiritishda tavakkal imkoniyatlarining turlari<sup>19</sup>**

Rasmdan ko‘rinib turganidek, EIZ xususiyatini hisobga olgan holda qator tavakkal turlarini ajratish mumkin.

O‘zbekiston kabi nisbatan yirik mamlakatda investitsiya muhitini tezda jahon standartlari talabiga javob beradigan darajada yaxshilash ancha mablag‘ni, vaqtni talab qiladi, shu bois ma‘lum bir mintaqa miqyosida hamda ma‘lum bir EIZ doirasida qulay investision muhitni yaratishga asosiy e‘tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Hamma davlatlarda ham EIZlar yaratish borasida puxta o‘ylangan zonal siyosat olib boriladi, deb bo‘lmaydi. Dissertasiyada bu borada katta tajribaga ega bo‘lgan ayrim davlatlardagi zonal siyosatni tahlil qilib chiqqanmiz. EIZlar yaratish borasida juda katta ishlar olib borayotgan va katta yutuqlarga erishgan davlatlardan biri bu - Amerika Qo‘shma Shtatlaridir. Shuning uchun tahlilni shu davlatdan boshladik.

1. AQSh mintaqaviy siyosatning muhim unsuri sifatida bo‘lgan zonal siyosatga ega bo‘lgan hamda bu borada jahonda eng yaxshi tajribaga ega bo‘lgan va juda muvoffaqiyatli faoliyat olib borayotgan erkin iqtisodiy zonalarga ega davlatdir. AQShda EIZlar soni 2000 tadan o‘tib ketdi. Ular tashqi iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlikning turli - tuman shakllarini o‘z ichiga olgan. Bular ichida tadbirkorlik va texnik – tadqiqot zonalari ko‘pchilikni tashkil etadi<sup>20</sup>. Hozirgi zamonda mavjud bo‘lgan turli xil EIZlarning AQShda uch turi eng ko‘p tarqalgan: tashqi savdo zonalari, tadbirkorlik zonalari va texnologiya parklari. Bularning ichida eng keng tarqalgani, butun AQSh bo‘ylab yoyilgani va «Silikon vodiylari» nomi bilan chiquvchi texnoparklar hisoblanadi. Butun dunyoda AQShning «Silikon velli» larini

<sup>19</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>20</sup> Леонидов Б. Роль СЭЗ в привлечение иностранного капитала в России. //Ж: Внешняя торговля. - 2000г. № 5-6. 50-53с.

yangi g'oyalar va yangi mahsulotlarning bitmas - tunganmas manbai bo'lgan, ilm ko'p talab qiladigan texnologiyalar Makkasi deb qarashadi. Ularni yoshlikning abadiy favvorasi, texnologik kuchlarning bastioni deyinadi. «Silikon Velli» lar ilm ko'p talab qiladigan texnologiyalar yaratish sohasida hukmronlik qiladilar<sup>21</sup>.

AQShning tadbirkorlik zonalari faoliyati tajribasining umumiy xulosasi shundan iboratki, zona tashkil etishda dastur unchalik ko'p bo'lmagan strukturani o'z ichiga olishi kerak, rag'bat, imtiyozlar tizimi esa boy, xilma-xil bo'lishi kerak.

AQSh o'zining hozirgi darajasiga yetishda davlat olib borayotgan zonal siyosat ham katta rol o'ynamoqda. O'zbekistonda zonal siyosatni amaliyotga kiritayotganda AQShning bu boradiki tajribasini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, EIZlar yaratish borasidagi AQSh tajribasi shuni ko'rsatadi, texnik-tadqiqot zonalarning eng progressiv shaklaridan biri bo'lgan texnoparklarni O'zbekistonda ham keng miqyosda kiritish maqsadga muvofiqdir.

2. Yaponiya ham EIZlardan iqtisodiyotni jonlantirish usuli sifatida keng foydalanadi. Mamlakat milliy masshtabda mintaqalarni rivojlantirishni rejalashtirishning o'ziga xos usullariga ega. Davlat tomonidan rejalashtirish o'z ichiga rivojlanish rejasining umumiy hamda alohida vazirliklarning qo'shma tadbirkorlikni turli usullari bo'lgan zonalarni rivojlantirish rejalarini oladi<sup>22</sup>.

Erkin import zonalari bilan bir qatorda ilmiy - texnik tipidagi tadbirkorlikni rivojlantirishga mo'ljallangan EIZlar ham mavjud. Ular AQShning texnoparklariga o'xshab ketadi, ammo ancha farq qiladi. Hozirgi paytda bu mamlakatda 50 ta EIZ (28 ta texnopolis, 22 ta erkin savdo zonalari va import zonalari) mavjud. "Texnopolis" dasturini Yaponiyaning tashqi savdo va sanoat vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan. Bu dastur bo'yicha mamlakatning iqtisodiy jihatdan qoloq prefekturalarida 20 ga yaqin texnopolis nomini olgan ilmiy - texnik zonalarni yaratish ko'zda tutilgan edi.

«Texnopolislar strategiyasi» - Yaponiyani umummilliy inqirozdan olib chiqish va dunyoning buyuk davlatlar qatoriga olib chiqishga yordam bergan ishlardan biridir. Bu strategiya Yaponiyaning ikkinchi jahon urushida yutqizgan, AQSh armiyasi tomonidan okkupatsiya qilingan, ishlab chiqarishning militarizatsiyasi juda yuqori bo'lgan davrda, millat kamsitilgan va tiklash yo'llarini izlagan davrda yaratilgan.

Yaponiyada texnopolis nomini olgan texnoparklar o'zining yashovchanligini isbot qildi. Yaponiya insoniyatga ilmiy - tadqiqot zonalarning eng samarali va eng mukammal shakli bo'lgan texnopolislarni berdi. Yaponlar texnopolislarni yaratib va bu quroldan uddaburonlarcha foydalanib jahonning yuqori texnologiyalar bozorida o'z o'rniga erisha oldi. Yapon tajribasiga tayanib texnopolis kabi erkin iqtisodiy zonalarni O'zbekistonda ham qo'llash maqsadga muvofiqdir.

---

<sup>21</sup> Друзик Я.С. Свободные экономические зоны в системе мирового хозяйства: Учебное пособие – М.: Приора, 2007 – 798 с.

<sup>22</sup> Рудакова М. Японский вызов американскому капитализму уроки конкуренции. //Ж: Экономические науки. - 1981г. № 2. ст. 71-80., Тимонина И.Л. Япония: опыт регионального развития. М.: Наука, 1992г. - <https://books.google.co.uz>.

Dissertatsiyada bu ikki davlatdan tashqari Xitoy, Rossiya, Irlandiya, Vengriya va boshqa qator davlatlardagi zonal siyosat tahlil qilib chiqildi. Xitoy hukumati puxta o‘ylangan zonal siyosat yurgizish natijasida qisqa muddatda o‘z mamlakatida, birinchi navbatda uning EIZlar joylashgan mintaqalarida qulay investitsiya muhitini yaratib bildi va iqtisodiyotni jadal sur‘atlar bilan o‘shishga erishdi. Irlandiyaning “Shannon” zonasida kichik bir biznes rejadan boshlangan loyiha jahon ahamiyatidagi zonal siyosatga aylandi. Kichik bir mamlakatning EIZsi jahon maktabi nomini oldi, «yashil orol» iqtisodiyoti esa gurkirab rivojlanish pog‘onasiga chiqib oldi. Vengriya totalitar iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga jadal sur‘atlar bilan o‘tib borishida zonal siyosat ham katta rol o‘ynamoqda. Yuqorida sanab o‘tilgan davlatlar tajribasi erkin iqtisodiy zonalar yaratishda quyidagi tavsiyalarni qilishga imkon beradi:

- AQSh texnoparklarini O‘zbekistonda tashkil etish maqsadga muvofiq;
- Yaponiya texnopolislariga asoslangan holda arpolislarni respublikamizda yaratish zarur;
- Zonalar uchun qulay muhit yaratishni Xitoydan o‘rgangan ma’qul;
- Totalitar iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga silliq kirib borishni Vengriyadan o‘rganish mumkin.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi “**Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sharoitida mintaqalarda erkin iqtisodiy zonalar yaratish va zonal siyosatni amalga oshirishning o‘ziga xosligi**» deb nomlangan bo‘lib, unda O‘zbekistonda, jumladan, Buxoroda yaratish mumkin bo‘lgan ayrim EIZlarning konsepsiyalari ishlab chiqilgan.

Muallif mintaqada zonal siyosat konsepsiyasini quyidagi tarzda bo‘lishini taklif etadi. Buning uchun avvalom-bor quyidagilarni e’tiborga olmoq zarur:

1. Maqsad, vazifa va yaratilajak zona tiplarini boshidan aniq qilib belgilab qo‘yish kerak, ayniqsa texnik - iqtisodiy asoslanishni puxta ishlab chiqish zarur. Xorijiy investorlar uchun tavakkali eng kam bo‘lgan, xarajatlarni eng tez qoplab bo‘ladigan hamda butun mamlakat miqyosida ahamiyatga ega bo‘lgan zona turiga, sohaga, tarmoqqa ustuvorlik berish kerak.

2. Tashkil etilajak zonalar sonini va maydonlarini iloji boricha minimumga keltirish kerak. Chunki jahon talablariga javob beradigan infrastrukturani yaratish juda katta mablag‘ni (avvalambor davlat byudjeti hisobidan sarflanadigan) talab qiladi (EIZning har bir kv. km, maydonini jahon standartlari talabi darajasiga chiqarish uchun o‘rtacha 40-45 mln. dollarni talab qilinadi). EIZda qulay ishlab chiqarish, savdo va bojxona munosabatlarini yaratish uchun infrastruktura rivojlangan kichik bir joyda, masalan, biror korxonaga teng bo‘lgan zonada tashkil etish zarur.

3. Vaqtni va moliya resurslarini maksimal iqtisod qilish maqsadida EIZni iloji boricha aholi yashaydigan punktga yaqin, xo‘jalik jihatdan oldin o‘zlashtirilmagan maydonda yaratish zarur. Moddiy - texnika ta’minoti, transport ta’minoti, energiya manbalarini ham inobatga olmoq zarur. Bu masalada Xitoyning Shanxay shahri yaqinida tashkil etilgan Pudun EIZ tajribasi maqtovgaga loyiqdir.

4. EIZlarni yaratish va hayotiy faoliyatini ta'minlash ishlarini juda qimmatligini hisobga olib, nafaqat yer maydonini minimumga keltirish, balki kompakt joylashishga ham erishish kerak. Xavfsizlikni ta'minlash manfaatlari ham buni talab qiladi. Bundan tashqari, tashkil etiladigan turli xil zonalarini ham bir mintaqaga konsentratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

5. EIZni mamlakatning va jahonning transport arteriyalariga tez va arzon chiqa oladigan joylarda joylashtirish zarur. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, EIZlarni dengiz bo'yiga joylashtirish eng maqsadga muvofiq. Albatta, imkoniyat bo'lsa, O'zbekiston esa bunday imkoniyatdan mahrum, shu bois, EIZlar uchun joy tanlashda jahon okeaniga eng arzon chiqish mumkin bo'lgan mintaqada zonalar yaratish maqsadga muvofiqdir, chunki ular eng arzon transport turi bilan ta'minlanadi va tranzit yuk tashish muammosini yengillashtiradi. EIZlarni tashkil etishning quyidagicha mexanizmlari bo'lgani maqsadga muvofiqdir (6 - jadval).

**6 - jadval.**

**EIZlarni tashkil etish va faoliyat yuritish mexanizmi<sup>23</sup>.**

<b>Qonun bo'yicha EIZni tashkil etishning</b>	
<b>Huquqiy mexanizmi</b>	<b>Iqtisodiy mexanizmi</b>
EIZ faoliyati mamlakatning asosiy qonuni- konstitutsiya hamda EIZlar to'g'risidagi qonun va boshqa qonunlar asosida tartibga solinadi.	Ayrim soliq tushumlari hisobidan ma'muriy kengash investitsiya va sotsial - iqtisodiy rivojlantirish jamg'armalarini tashkil etadi.
EIZ mahalliy hukumat taklifi bilan mamlakat Prezidenti qarori bo'yicha yaratiladi. Mahalliy hukumat EIZning konsepsiyasi va texnik - iqtisodiy asoslarini ishlab chiqadi va markaziy hokimiyatga taqdim etadi.	EIZda faoliyat yurituvchi korxonalar qonunda ko'rsatilgan imtiyozlardan foydalanadilar.
EIZ bekor qilinganda ham zonadagi korxonalar o'z imtiyozlaridan 5-10 yil foydalanish huquqiga ega bo'ladi.	Soha va tarmoqlarning ustuvorligiga qarab imtiyozlar tabaqalashtiriladi.
Zonani ma'muriy kengash boshqaradi. Uning raisi Prezident tomonidan tayinlanadi va ishdan bo'shatiladi.	
Qo'yilgan maqsadga erishilmasa, EIZni faqat Oliy Majlis muddatidan oldin bekor qilishi mumkin.	
Ayrim imtiyozlar ishlab chiqish huquqi ma'muriy kengashga beriladi.	

Mintaqalarda EIZni tashkil etishda qaysi hududni tanlashda hududning quyidagi ustunliklarini inobatga olish zarur:

- ❖ nisbatan arzon xom ashyo va energiya resurslari mavjudligi;
- ❖ nisbatan malakali va ancha arzon ish kuchi resurslarining borligi;
- ❖ ayrim sohalarda ilmiy potensialning yuqoriligi;
- ❖ nafaqat industrial tarmoqlar, balki turizm, qishloq xo'jaligi va ayrim boshqa sohalarni rivojlantirishda katta potensialning mavjudligi;
- ❖ Yuqori malakali, ammo arzon olim va mutaxassislarining borligi.

<sup>23</sup> Manba: jahon tajribasi tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Zona yaratishdan oldin uning potensial imkoniyatlarini chuqur bilish kerak. Zonaning potensial imkoniyatlari qatoriga 3-rasmda sanab o‘tilgan omillar eng asosiylari, deb hisoblaymiz.



**3 - rasm. “Donish” ning potensial imkoniyatlarini belgilovchi omillar<sup>24</sup>**

Iqtisodiyotimiz hayotiga kiritilishshi kerak bo‘lgan erkin iqtisodiy zona turlaridan biri “Duty Free” tipidagi do‘konlar hisoblanadi. “Duty Free” tipidagi do‘konlarni EIZlarning jahon iqtisodiyotida juda keng tarqalgan bir shakli bo‘lgan erkin savdo zonalariga kiritishadi. Hozirgi paytda bojsiz savdo hajmi juda ham kattadir, dunyodagi eng yirik bojsiz savdo bilan shug‘ullanuvchi do‘konlarning chakana savdo aylanmasi buni namoyish etadi (7 - jadval).

**7 - jadval.**

**Dunyoning eng yirik bojsiz savdo bilan shug‘ullanuvchi do‘konlarning savdo aylanmasi<sup>25</sup>**

Savdo do‘koni joylashgan manzil	Savdo do‘koni joylashgan joy turi	Mamlakat	Yalpi savdo, mln. AQSh dollari hisobida
London, Xitrou	aeroport	Buyuk Britaniya	576,5
Gonolulu	aeroport	AQSh	428,8
Silja Line	Konteynerlar tashish joyi	Finlyandiya	410.0
Gongkong	aeroport	Gongkong	380.0
Singapur	aeroport	Singapur	365.0
Amsterdam	aeroport	Niderlandiya	310,5
Parij, Sharl de Goll	aeroport	Fransiya	293,3
Viking Line	Konteynerlar tashish joyi	Finlyandiya	290.0
Frankfurt	aeroport	Germaniya	285,9
Manila	aeroport	Filippin	271.0

<sup>24</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>25</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Bundan tashqari, ayrim davlatlar turistlar uchun “Tax Free” tizimini qo‘llashadi, sotib olinib, boshqa mamlakatga olib ketish uchun mo‘ljallangan tovarlar uchun juda yaxshi imtiyozlar tizimini kiritishgan. Bunda Value Added Tax - VAT savdo markazlari va maxsus do‘konlarda sotib olingan tovarlar qiymatining bir qismi turistga davlat chegarasini kesib o‘tayotgan paytda qaytarib beriladi. Bu qaytarib beriladigan summa odatda tovar qiymatining 20 foizigachani tashkil etadi. Bu chora - tadbir turistlarni kiyim-kechak, elektronika, fototexnika va boshqa maishiy predmetlarni sotib olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va xarid qilishga undaydi.

O‘zbekistonning ko‘plab oliy o‘quv yurtlari bazasida texnoparklarni yaratish mumkin. Biz shunday texnoparkni Buxoroda Buxoro davlat universiteti qoshida yaratish mumkin deb, hisoblaymiz va uni “Donish” deb nomlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mintaqada yetarli imkoniyatlar bor. “Donish” texnoparkini yaratishdan quyidagi maqsadlarni ko‘zlash mumkin: mintaqaning turizm hamda yengil va oziq - ovqat sanoati korxonalarini texnik jihatdan qayta qurolantirishga ko‘maklashish; yangi, yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish; mintaqadagi, uni qo‘shni rayonlaridan hamda xorijdan investitsiya oqib kelishiga imkon tug‘dirish; mintaqaning ilmiy potensialini samarali ilmiy tadqiqotlarga konsentratsiya qilish; mintaqadan “aqlar oqimini” to‘xtatish. BuxDU.da texnoparkni yaratish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Biz bu texnoparkni yaratish loyihasini ishlab chiqdik (8-jadval).

O‘zbekiston qulay tabiiy-iqlim sharoitiga ega bo‘lganligi uchun ham agrar sohani rivojlantirish masalasida juda katta potensialga ega ekanligini bilamiz. Shuning uchun ham mamlakatda bu sohaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalarning shu turini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir, shu bilan birga, bu masalada juda katta imkoniyatlarga ham egadir.

O‘zbekistonda qator agropolislarni yaratish mumkin, jumladan:

- Buxoro vohasida mevachilikka ixtisoslashgan agropolislarni yaratish mumkin. O‘zining shirin mevalari, birinchi navbatda o‘rik, tut, olcha va uzumlari bilan mashhur, shu mevalarni ishlab chiqarish, konservatsiya qilish, sok, murabbo va shu kabi mahsulotlar olishga hamda uzoq yurtlarga eksport qilishga ixtisoslashgan zonani yaratish mumkin;

- Buxoro vohasi qovunlarining dovrug‘i yetti iqlimga etgan, jahonga mashhur qovunlarni yetishtirishga qulay iqlim sharoitiga hamda tajribaga ega bo‘lganlik bobo-dehqon, mirishkorlarimiz va seleksioner olimlar bor. Shu qovunlarni yetishtirish, ularni quritish va turli xil mahsulotlar olishga qaratilgan agropolis yaratish mumkin.

O‘zbekistonda agropolislarni yaratishda zonalarda faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalarining hamkorligi zarur, busiz esa samarali innovatsion loyihani yaratib bo‘lmaydi. Loyiha yaxshi samara berishi uchun uni nazoratiga mahalliy hokimiyat bilan bir qatorda bu oliy yuquv yurtlaridagi mutaxassislarni ham jalb qilish zarur. Hozirgi paytda ko‘plab olimlar o‘zicha ilmiy ishlarni olib bormoqda, ularni bir maqsadga birlashtirish natijasida samaradorlikni ko‘tarish imkoniga ega bo‘linadi.

**Donish texnoparkini yaratish loyihasining ish rejasi<sup>26</sup>**

<b>1 - bosqich:</b>	
Ish rejasi	BuxDU maydonida innovatsion markaz qurilishi.
Asosiy funksiyasi	Buxoro davlat universiteti va Buxoro texnika universitetida innovatsion faoliyatni barqaror rivojlantirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish, «Donish» texnoparkini yaratishdagi tadbirlarni aniq belgilab olish.
Bosqichning asosiy vazifasi	BuxDU va BuxTUNing innovatsion faoliyatini qoʻllab-quvvatlash asosida informatsion, malakaviy va moddiy-texnik bazasini yaratish.
Bajarish muddati	2025-2028 yy.
<b>2 - bosqich:</b>	
Ish rejasi	BuxDU va BuxTU hududida innovatsion texnologik markaz shaklidagi innovatsion biznes inkubatorni yaratish.
Asosiy funksiyasi	Kichik innovatsion korxonalarini inkubatorlashtirish, innovatsiyalarni joriy etish.
Bosqichning asosiy vazifasi	Ofis, ishlash chiqarish binolarini qurish va rekonstruksiyalash (2025-2028 yy.), kichik innovatsion korxonalarini joylashtirish (2025y.)
Bajarish muddati	2025-2028 yy.
<b>3 - bosqich:</b>	
Ish rejasi	“Buxoroneftzavod” aksiyadorlik jamiyati bazasida industrial parkni tashkil etish.
Asosiy funksiyasi	Koʻp seriyali ishlab chiqarishini tashkil etish, koʻchma ishlab chiqarishni rejalashtirish
Asosiy vazifasi	Tayyorlov (2025-2028 yy) rekonstruksiyalash (2026-2027 yy), ekspluatatsiya bosqichiga oʻtish (2028-2029 yy.)
Bajarish muddati	2025-2028 yy.
<b>4 – bosqich:</b>	
Ish rejasi	Universitet shaharchasi hududida ilmiy texnologik parkni qurish.
Asosiy funksiyasi	BuxDU va BuxTUNing ilmiy-texnik ishlanmalarini tayyorlash yuqori, texnologiyali innovatsion korxonalarini yaratish va barqaror rivojlantirish.
Asosiy vazifasi	Qurilish (2025-2028 yy.), ekspluatatsiya qilish (2028 y.), yuqori texnologiyali kichik korxonalarini joylashtirish (2028 y.)
Bajarish muddati	2025-2028 yy.

Dissertatsiya ishining toʻrtinchi bobi “**Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sharoitida Buxoroda turistik erkin iqtisodiy zonalar yaratish masalalari**” deb nomlangan boʻlib, unda Buxoro viloyatida turizmga aloqador baʼzi bir EIZlar tashkil etishning imkoniyatlari koʻrib chiqilgan. Xorijiy ekspertlarning fikricha, Oʻzbekistonda turizmga ixtisoslashgan EIZ (bundan keyin – TEIZ) ni yaratish eng optimal variantlardan biri hisoblanadi. TEIZ yaratish imkoniyati eng katta boʻlgan

<sup>26</sup> Muallif ishlanmasi.

shaharlardan biri Buxoro ekan, bu shaharda shunday EIZ yaratish maqsadga muvofiqdir.

Buxoroda bunday zona yaratish imkoniyatini SWOT tahlili ham buni isbot qilib beradi (9-jadval). Tahlil shuni ko'rsatadiki, kamchiliklar, xavflar bo'lishidan qat'i nazar, bu destinatsiya turizmni yanada rivojlantirish uchun juda katta potensialga ega.

## 9 - jadval.

### «Buxoro» TEIZni yaratishni SWOT tahlili<sup>27</sup>

<b>Kuchli tomonlar</b>	<b>Kuchsiz tomonlar</b>
<p>*Turizmni rivojlantirishda shaharda juda katta potensial bor;</p> <p>*Nisbatan arzon xom ashyo va energiya resurslari;</p> <p>*Nisbatan malakali va ancha arzon ish kuchi resurslari;</p> <p>*Turizm sohasida ilmiy potensialning borligi;</p> <p>*Shahar atrofi va viloyatda ham juda katta turistik potensial mavjud.</p>	<p>*Kapitalning yetishmovchiligi muammosi.</p> <p>*Tarixiy obidalarning ayrimlari savdo rastasiga aylantirilgan, yoki boshqa maqsadda ishlatiladi;</p> <p>*Shahar obodonchiligi jahon talablaridan uzoq;</p> <p>*Ishlab chiqarish va bozor infrastrukturasi yetarli darajada rivojlanmaganligi;</p> <p>*EIZ faoliyatini tartibga solishni normativ huquqiy baza yaratilmaganligi;</p> <p>*EIZ yaratish bo'yicha tajribaning yo'qligi, aniq bir zonal siyosatning yo'qligi;</p>
<b>Imkoniyatlar</b>	<b>Xavf-xatar (to'siqlar)</b>
<p>*Buxoro Turonda ko'p yillar poytaxt bo'lgan. Har bir davlat, har bir dinastiya shahar uchun o'ziga xos qadriyat, iz qoldirgan.</p> <p>*Arkning asosiy qismi vayron qilingan bo'lsa ham, uni tiklasa bo'ladi va qayta tiklash kerak.</p> <p>*Buxoroning markaziy qismida ajdodlardan qolgan yodgorliklarni butun bir ansambl sifatida, yaxlit holda saqlangan.</p> <p>*Buxoro o'rta asr boshlaridanoq butun Turonning madaniyat, din va ma'rifat markazi bo'lib kelgan. Bu yerga nafaqat o'z karvonlari bilan savdogarlar-u, uzoq-yaqin davlatlardan elchilar kelishgan, balki ziyoratchilar va sayyohlar ham kelishgan. Bularning hammasi Buxoroga katta imkoniyatlar beradi.</p>	<p>*Zonada hayot darajasi atrofdagi rayonlardan ancha farq qilib territorial jihatdan tabaqalashuvga olib kelishi mumkin.</p> <p>*Noqonuniy iqtisodiy faoliyat uchun jozibador bo'lishi mumkin.</p> <p>*Imtiyozlarga ega bo'lish uchun boshqa mintaqalarni hukumatga tazyiqi kuchayishi mumkin.</p> <p>*Sayyohlar sonining oshishi bilan mintaqa bo'ylab ishlab chiqarish chiqindilari, axlatlar ham ko'payishiga, zona ekologiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan komponentlar o'sishiga (shovqin, asfalt, beton...) olib kelishi mumkin.</p>

<sup>27</sup> Muallif ishlanmasi.

Buxoro TEIZsini yaratishda “Breakthrough” strategiyasi qo‘llab, “SIV” maydonining kuchli jihatlari: arzon ishchi kuchi, mavjud turistik potensial, ilmiy kadrlarning mavjudligi va qishloq xo‘jaligi rivojidan uddaburonlarcha foydalanish, “SLS” maydonining kuchli jihatlari: turli podshohliklar qoldirgan izlarni, Ark qo‘rg‘onining imkoniyatlarini, shahar tarixiy markazining yaxlitlik ustunligini, Buxoroning “Qubbatil islom” potensialini realizatsiya qilishni, “SIS” maydonining kapital yetishmovchilikda mahalliy kapitalni hamda xorijdagi sobiq buxoroliklarning imkoniyatlarini qidirib topishga urg‘u berishni, shaharni obodonlashtirishga e‘tiborni qaratishni hamda obidalarni boshqa maqsadda ishlatilishiga to‘siqlar o‘ylab topishga urg‘u berishni, “SLN” maydonida esa noqonuniy iqtisodiy faoliyatga to‘siqlar o‘ylab topish va kiritish hamda shaharning sanitariya-gigiyenasiga e‘tiborni kuchaytirishga urg‘u berish maqsadga muvofiqdir.

EIZning buguni va ertasi, birinchi navbatda, uni boshqarish sifatiga to‘g‘ridan - to‘g‘ri bog‘liqdir. Shuning uchun ham zonani boshqarishni puxta o‘ylab olib borish kerak. Zona samarali ishlashi uchun katta huquq va majburiyatlar yuklatilgan direksiya tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Dissertatsiyada BTEIZni boshqarishni tashkil etish uchun direksiya tarkibi va uning funksiyalari taklif etilgan. TEIZni boshqarishda xorijiy mutaxassislarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Shuni ham inobatga olish kerakki, turistik EIZ o‘z ichiga mehmonxonalar, restoranlar, tungi to‘garaklar, sport maydonlari, valyuta almashtirish punktlari, benzin quyish shaxobchalari, do‘konlarni ham oladi. Xorijiy firmalar mehmonxonalar, do‘kon va boshqa obyektlarni sotib olish yoki konsessiyaga olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Vayron bo‘lib yotgan Ark maydonini tiklashga mablag‘ topish uchun Ark territoriyasida joylashgan muzey va vayron bo‘lib yotgan maydonning bir qismida turistlarni o‘ziga jalb qila oladigan, Buxoroning milliy koloritini ko‘rsata oladigan mahalla tashkil qilish maqsadga muvofiq. “Tarixiy turistik mahalla” tashkil qilish kerak, unda shahar turizmi, madaniy-etnografik turizm va gostronomik turizm mujassamlashtirib, yangi turizm turini vujudga keltirish mumkin. Ya’ni mazkur mahallada xorijdan kelgan hamda mahalliy sayyohlar kelib qadimgi ajdodlarimiz yashagan uylarda yashab ularning turmush tarzi bilan tanishishlari (etnografik turizm), ularning milliy ovqatlari pishirish jarayonida bevosita qatnashib ulardan tatib ko‘rishlari (gastronomik turizm), ularning hunarmandchilik, kosibchilik usullarini ko‘rib mahsulot yaratilish jarayonida o‘zlari ham ishtirok etishlari va Buxoro xalqining qadimiy folklor va madaniyatini targ‘ib etuvchi konsert va shoularda qatnashish (madaniy turizm) imkoniyatiga ega bo‘ladilar. 10 - jadvalda uning daslabki bosqichidagi xarajatlari keltirilgan:

Mahalla uchun 1.0 – 1.5 gektar maydonni ajratish mumkin. Bunda Buxoroni o‘ziga xos jihatlarni o‘zida mujassamlashtirgan 40 ga yaqin milliy ruhdagi o‘rta asr nafasini beruvchi kichik hovlilar tashkil qilinadi. Hovlilar tashqi ko‘rinishidan qadimiy g‘isht va paxsa, cho‘bkori uylarni eslatmada, uning ichida zamon talablariga mos infratuzilma mavjud bo‘ladi. Mahallaga kuniga 150 ta xorijiy va mahalliy sayohatchilar yashab, dam olishlari mumkin. Agar Buxoroda turizmga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zona yaratilsa, u mintaqa turizmini jadal ravishda

rivojlanishga yo‘l ochib beradi, ko‘pgina moliyaviy, tarixiy obidalarni asrash bilan bog‘liq muammolarni ijobiy tarzda va tez hal qilishga imkon beradi.

## 10 - Jadval.

### Tarixiy turistik mahalla yaratishning dastlabki bosqichdagi reja<sup>28</sup>

t/r	Ko‘rsatgichlar nomi	Birligi	Qiymati
1	Loyihaning umummiy qiymati	Ming AQSh doll.	12000
2	Loyiha qamrab oladigan maydon hajmi	gektar	1,5
3	Loyihani hayotga tadbiq etish muddati	Oy	18
4	Loyihani moliyalashtirish manbalari		Investorlar
5	Mahallaning bir kundagi sig‘imi	kishi	4000
6	Loyihani o‘z-o‘zini qoplash davri	Oy	32
7	Mahalla to‘liq ishga tushgach yiliga ko‘rsatiladigan xizmat va mahsulotlar hajmi	Ming AQSh doll.	3000-4000
8	Mahallaning yillik daromadi	Ming AQSh doll.	550
9	Obyektda yaratiladigan ish o‘rinlari	Ish o‘rni	250-350
10	Obyektga keladigan xorijiy turistlarning ulushi	%	80
11	Obyektga keladigan mahalliy turistlarning ulushi	%	20

Buxoro Arkini turistik maxsus mahallaga aylantirsak, yani loyihamiz asosida viloyatda tashkil etiladigan tarixiy – etnografik mahalla, bir tomondan, viloyat turizm sohasini rivojlanishiga va viloyat byudjetiga turizmdan tushadigan tushumning ortishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan Ark kabi O‘zbekistonning noyob arxtekura ansamblini tiklashga mablag‘ topiladi, bu esa hozirgi O‘zbekiston uchun juda muhimdir.

## XULOSA

Mintaqani barqaror rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish borasidagi tadqiqotlarimiz asosida quyidagi ilmiy xulosalar olindi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Barqaror rivojlanish g‘oyasining maqsadi – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan tarzda hozirgi zamon kishilik jamiyatini uzviy bog‘langan ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotini bir me‘yorda ta‘minlashdan iborat. Bu maqsadga erishishda erkin iqtisodiy zona mexanizmi muhim rol o‘ynaydi.

2. EIZlar turli iqtisodiy darajada bo‘lgan (ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan) mamlakatlarda keng miqyosdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun qo‘llaniladi. Biroq, ularni turkumlash, yaratish maqsadlari va hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalari har bir mamlakatning taraqqiyot darajasiga, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning mohiyati va maqsadlariga hamda iqtisodiy rivojlanishning ustuvorliklariga bog‘liq.

3. EIZ yaratish jarayoni – EIZni tashkil etuvchi barcha tarkibiy qismlarini juda puxta o‘ylashni talab qiladigan jarayondir. Maqsad va vazifalarni ishlab chiqishda

<sup>28</sup> Muallif ishlanmasi.

ko'plab omillarni: mamlakatning iqtisodiy ahvolini, investitsion qonunchilikning barqarorligini, soliq qonunchiligining barqarorligini, tashqi iqtisodiy aloqalarni va boshqa ko'plab omillarni inobatga olgan holda, puxta tarzda ishlab chiqilishi kerak. Faqat shundagina u samarali ishlashi mumkin.

4. O'zbekiston kabi nisbatan yirik mamlakatda investitsiya muhitini tezda jahon standartlari talabiga javob beradigan darajada yaxshilash amri maholdir. Shuning uchun ham mikro darajada, ya'ni EIZ doirasida bunday muhitni yaratish ustida ishlash kerak. Albatta, makro darajada investitsion muhitni yaxshilash davlatni zonal siyosatining bosh vazifalaridan biri bo'lib qolishi zarur. EIZlar uchun qulay tartib, ishlovchan mexanizmlar va samarali imtiyozlar tizimini ishlab chiqish kerak. EIZ bo'yicha har bir loyihada shunday muhim ahamiyatli «dalil» ni topish va ajratib olish kerakki, u EIZ qatnashchilari va potensial hamkorlar uchun o'ta jozibador bo'lib ko'rinsin.

5. EIZlarni yaratish mamlakat milliy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Buning uchun puxta o'ylangan zonal siyosat ishlab chiqilishi zarur. Zonal siyosat – bu mamlakatda EIZlarni yaratish bo'yicha hamda mintaqa, tarmoq, soha va alohida korxonalarining potensialini chuqur o'rganib, ushbu potensialni realizatsiya qilish tizimini ishlab chiqish bo'yicha davlatning olib boradigan chora - tadbirlar majmuasidir. Mamlakatda mavjud resurslarni samarasiz ishlatilayotgan soha, tarmoq va mintaqalardan juda samarali ishlatib bo'ladigan soha, tarmoq, mintaqaga oqishiga ko'maklashuvchi vosita, deb qarash zarur.

6. Erkin iqtisodiy zonalar yaratish borasida mamlakatda maxsus iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va qo'llash maqsadga muvofiqdir, ayniqsa mintaqaviy darajada zonal siyosat hududda qulay muhitni shakllantirish va uni takomillashtirish ustida maqsadli chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish zarur. EIZlarni yaratish mintaqani barqaror rivojlantirish strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lishi kerak.

7. Texnopolislarning O'zbekiston uchun eng optimal variant bo'lgan agropolislar barpo etilishi avvalom-bor, mamlakat iqtisodiyotida salmoqli o'ringa ega bo'lgan qishloq xo'jaligini ravnaqiga ulkan hissa qo'shadi, bundan tashqari, mintaqaning ilmiy potensialini harakatga keltiradi, agrar sohada ilm qilayotgan olimlarni faoliyatini aniq bir yo'nalishga qaratadi va samaradorligini oshiradi, mintaqa uchun qo'shimcha ish joylari va davlatga valyuta oqimini oshirishga imkon beradi.

8. Zonal turistik mahsulot individual turistik mahsulotdan, hatto turli xil individual turistik mahsulotlar yig'indisidan ancha jozibalidir. Shuning uchun ham butun bir mintaqani yaxlit bir joziba obyektiga bo'lishi ustida ish olib borish kerak. Bizning misolda butun Buxoro hududida yaxlit zonal garmonik turistik mahsulot yaratish ustida ishlash kerak. Bu o'z navbatida mintaqada turistik EIZ yaratish zarurligini yanada aktuallashtiradi.

9. Buxoro Arkini turistik maxsus mahallaga aylantirsak, yani loyihimiz asosida viloyatda tashkil etiladigan tarixiy – etnografik mahalla, bir tomondan, viloyat turizm sohasini rivojlanishiga va viloyat byudjetiga turizmdan tushadigan

tushumning ortishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan Ark kabi O‘zbekistonning noyob arxtekura ansamblini tiklashga mablag‘ topiadi, bu esa hozirgi O‘zbekiston uchun juda muhimdir.

10. EIZda ishlar muvofaqiyatli bo‘lishi uchun, eng avvalo, zona maydonida erkin tadbirkorlikka sharoit bo‘lishi kerak, erkin tadbirkorlik ruhi ustunlik qilishi zarur. Xorijiy investorlar uchun biznes olamida umumiy «shaffovlik» bo‘lishi va iqtisodiy subyektlarning harakatini oldindan aytib berish imkoni bo‘lishi juda muhimdir.

11. Mintaqa uchun qulay investitsiya muhitini yaratishda nafaqat tashqi va ichki investitsiyaga qulay sharoit yaratishni ko‘zda tutish kerak, balki aholining shaxsiy jamg‘armalarini ishlab chiqarishga mobilizatsiya qilishni ham inobatga olish kerak. Chunki har qanday millatni mustahkam va abadiy oyoqqa turg‘izadigan ikki muhim narsa bor, bu – investitsiya va aholi jamg‘armasidir. Aholi mablag‘lari va boshqa ichki resurslar mablag‘larini investitsiyaga aylantirish O‘zbekiston zonal siyosatining strategik vazifalaridan biri bo‘lishi kerak.

12. Buxoro mintaqasini barqaror rivojlantirish maqsadida erkin iqtisodiy zona mexanizmini oqilona qo‘llab, turistik mahallalar, kichik turistik zonalar, turistik parklarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

**РАЗОВЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
DSc.03/27.09.2024.1.72.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ХАМРАЕВ ХАЛИМ РОЗИКОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОРГАНИЗАЦИИ  
СВОБОДНО - ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В УСТОЙЧИВОЙ РАЗВИТИИ  
РЕГИОНА**

**08.00.12 – Региональная экономика**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора (DSc) экономических наук**

**Бухара - 2025**

Тема докторской диссертации (DSc) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2025.1.DS/Iqt893.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Бухарского государственного университета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и на информационном образовательном портале "Ziyouet" ([www.ziyouet.uz](http://www.ziyouet.uz)).

**Научный консультант:** Явмутов Дилшод Шоймардонкулович  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Рузметов Бахтиёр  
доктор экономических наук, профессор

Низамов Аслиддин Бадриддинович  
доктор экономических наук, профессор

Маллабоев Бахтиёржон Бултурбаевич  
доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:** Термезский государственный Университет

Защита диссертации состоится на заседании диссертационного совета DSc.03/27.09.2024.1.72.05 при Бухарском государственном университете «19» шолб 2025 года в 16:00 часов. (Адрес: 200100, г. Бухара, ул. М. Икбола, дом 11, Тел.: (99 865) 221-26-46, e-mail: [info@buxdu.uz](mailto:info@buxdu.uz).)

С диссертационной работой можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под № 2/690) Адрес: 220100, г. Бухара, ул. М. Икбола, дом 11, Тел.: (99 865) 224-67-00, e-mail: [info@buxdu.uz](mailto:info@buxdu.uz).

Автореферат диссертации распространён « 2 » шолб 2025 года.

(Протокол реестра № 22 от « 2 » шолб 2025 года.)



**О.Х.Хамидов**  
Председатель ученого совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**Н.С.Ибрагимов**  
Ученый секретарь ученого совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**Б.Н.Навруз-юда**  
Председатель научного семинара при Ученом совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** На сегодняшний день в 147 странах мира существует более 5400 свободных экономических зон, при этом за последние пять лет было создано 1400 новых зон, а в ближайшем будущем планируется создать еще 500. Свободные экономические зоны обеспечивают не менее 30% мирового товарооборота, половину мирового оборота капитала и создают около 100 миллионов рабочих мест<sup>1</sup>. Эти данные свидетельствуют о том, что роль свободных экономических зон в мировой хозяйственной практике укрепляется как важнейший инструмент устойчивого развития. Основная цель создания свободных экономических зон - стабилизация экономического развития на региональном уровне. Они становятся важными точками регионального экономического роста и выступают в роли катализатора, усиливающего процессы межрегиональной интеграции.

В мире при создании свободных экономических зон приоритет отдается исследованиям, направленным на совершенствование институциональных аспектов зональной политики в регионах, обеспечение устойчивого регионального развития посредством зональной политики, развитие современных форм свободных экономических зон (основанных на искусственном интеллекте, специализированных на производстве электроники, робототехники и других инновационных направлений), усовершенствование организационно-экономических механизмов их создания, повышение значимости таких зон в процессе модернизации технологической культуры, а также внедрение эффективных способов использования свободных экономических зон для реализации целей устойчивого развития.

В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы<sup>2</sup> в качестве приоритетных задач обозначены следующие цели: «повышение региональной экономики в 1,4–1,6 раза за счёт сбалансированного развития территорий, в том числе создание 200 новых индустриальных зон в регионах, развитие системы бизнес-инкубаторов, а также создание более благоприятных условий для развития предпринимательства в районах с тяжёлыми условиями».

Среди драйверов социально-экономического развития регионов особое место отведено созданию свободных экономических зон, а также запуску новых рабочих мест, производственных и сервисных мощностей, что определено в числе приоритетных направлений развития страны.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению задач, предусмотренных Законом Республики Узбекистан «О специальных экономических зонах» № ЗРУ-604 от 17 февраля 2020 года, а также следующими нормативно-правовыми актами: Указами

---

<sup>1</sup> The Sustainability Practices of Zones. <https://unctad.org/publication/sustainability-practices-special-economic-zones>.

<sup>2</sup> 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси. - [https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144).

Президента Республики Узбекистан № ПУ-41 от 3 марта 2025 года «О дополнительных мерах по повышению эффективности деятельности специальных экономических и промышленных зон»; № ПУ-153 от 13 июня 2022 года «О дополнительных мерах по повышению эффективности деятельности специальных экономических, малых промышленных, молодёжных промышленных и предпринимательских зон»; № ПУ-6244 от 9 июня 2021 года «О дополнительных мерах по повышению промышленного потенциала регионов»; № ПУ-5600 от 21 декабря 2018 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы координации и управления деятельностью свободных экономических зон»; Постановлениями Президента № ПП-271 от 6 июня 2022 года «О мерах по созданию специальных экономических и малых промышленных зон в регионах и обеспечению их инженерно-коммуникационной инфраструктурой»; № ПП-5243 от 14 сентября 2021 года «О мерах по дальнейшей поддержке участников специальных экономических зон»; № ПП-5101 от 30 апреля 2021 года «О мерах по дальнейшему развитию инженерно-коммуникационной инфраструктуры специальных экономических и малых промышленных зон»; Постановлением Кабинета Министров № 196 от 10 апреля 2017 года «О мерах по организации деятельности свободных экономических зон», а также иными нормативно-правовыми актами, регулирующими данную сферу.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Научное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики» развития науки и технологий Республики.

**Обзор зарубежных исследований по теме диссертации<sup>3</sup>.** Научно-практические исследования, посвящённые вопросам создания, развития и

---

<sup>3</sup> В диссертационной работе использованы следующие зарубежные научные исследования и труды экономистов: Agropolis: The Social, Political and Environmental Dimensions of Urban Agriculture. Editor(s) Luc J.A. Mougeot Publisher(s) Earthscan, IDRC. ISBN 1844072320; Al Sakka F. A. M. Human Capital Development in Special Economic Zones the Case of Dubai. Diss. University of Salford, 2014.; Ambroziak A., Hartwell C. (2018) The impact of investments in special economic zones on regional development: the case of Poland. *Regional Studies*. Taylor & Francis Journals, vol. 52, iss. 10, pp. 1322–1331.; Bai X. J., Yan W. K., Chiu Y. H. (2015) Performance Evaluation of China's Hi-tech Zones in the Post Financial Crisis Era. Analysis Based on the Dynamic Network SBM Model. *China Economic Review*, vol. 34, pp. 122–134.; Bogataj, David. The role of free economic zones in global supply chains - a case of reverse logistics. 2011., *Global Free Zone of the Year 2019 – Winners. Awards Special // fDi Magazine*. – 2020. – P. 4–14.; Liu W. and others (2018). The development evaluation of economic zones in China. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, vol. 15, iss. 1.; G.Fan, X.Xie, J.Chen, Z Wan, M.Yu, J.Shi - *Marine policy*, 2022 – Elsevier.; Баландина А.С., Баннова К.С., Брайченко А.А. Зарубежный опыт создания особых экономических зон. *Проблемы учета и финансов*. № 4 (24). 2016. с.60-63.; Баронов В.И., Костюнина Г.М. Свободные экономические и офшорные зоны. - *Магистр: инфра-м*. - М., 2013. - 560 с. - isbn 978-5-16-006667-7.; Иншаков О. В., Крюкова Е. В. (2017) Особые экономические зоны как институт развития nanoиндустрии: провалы, проблемы и перспективы. *Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 3: Экономика. Экология*. № 1. С. 6–17.; Ковалева Э. В., Мамышева Д. К. Таможенно-тарифное регулирование в странах ЕАЭС при торговле с КНР // *Международная торговля и торговая политика*. – 2019. – № 3 (19). – С. 137–150.; Майбуров И. А., Иванов Ю. Б. (2017) Особые экономические зоны. Теоретико-методологические аспекты развития. Монография. М.: ЮНИТИ-ДАНА. 351 с.; Павлов П. В., Защитина Е. К. (2020) Свободные экономические зоны как современный институт развития в международном бизнесе. *Вестник Санкт-Петербургского университета. Экономика*. Т. 36. Вып. 4. С. 675–692.; Павлов П. В., Фирсова М. В. (2016) Механизм оценки эффективности функционирования ОЭЗ в РФ и направления его трансформации в современных условиях. *Национальная безопасность*. № 6.С. 711–719.; Кабиров, Р.

